
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Konstitutsiyamizning 38-moddasi:

“Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega”.

Ushbu moddada fuqarolarga ijtimoiy faolliklarini ommaviy tadbirlar, xususan mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi qarori bilan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalari tasdiqlangan.

Mazkur qoida bilan O‘zbekiston hududida ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish hamda ularning ishtirokchilari, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish ob'ektlari ma'muriyatlarining, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya bo‘linmalari, shuningdek, davlat boshqa organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlari, majburiyatlari va huquqlari tartibga solingan.

Qodiraliyev Murodjon Yusubjonovich - Farg‘ona shahar adliya bo‘limi bo‘lim boshlig‘i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-21 18:04:28